

**RATSIONDA PROTEIN YETISHMAGANDA SUN'IY AZOTLI
MODDALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI
ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННЫХ АЗОТИСТЫХ
ВЕЩЕСТВ ПРИ НЕДОСТАТКЕ БЕЛКА В РАЦИОНЕ.
VAJNOST ISPOLZOVANIYA ISKUSSTVENNYX AZOTISTYX
VESHCHESTV PRI DEFICIENCIES BELKA V RATIONE.**

To'xtayev O.B. *SamDVMCHBU assistenti*

Temirov O.H. *SamDVMCHBU talabasi*

Тохтаев О.Б. – *ассистент СамДВМЧБУ.*

Темиров О. Х– *студент СамДВМЧБУ.*

Tokhtaev O.B. - *assistant SamDVMChBU.*

Temirov O. X – *student SamDVMChBU.*

Annatetsiya. *Ushbu maqolada sog'in sigirlarga beriladigan proteinning o'rniga azot saqlovchi moddalardan berishning iqtisodiy tomondan foyda keltirilishi haqida ma'lulotlar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Sigir, sut, azot, korbamid, foyda, mahsuldorlik, ratsion, me'yor, oziqa bazasi, oziqa, qand, quruq modda.*

Аннатация. *В данной статье представлена информация об экономической выгоде скармливания дойным коровам азотфиксирующих веществ вместо белка.*

Ключевые слова. *Корова, молоко, азот, карбамид, прибыль, продуктивность, рацион, норма, кормовая база, корм, сахар, сухое вещество.*

Annathetia. *V dannoy state predstavlena informatsiya ob ekonomicheskoy vygode skarmlivaniya doynym korovam azotfixiruyushchih veshchestv vmesto belka.*

Key words. *Korova, moloko, nitrogen, urea, pribyl, productivity, ration, norm, kormovaya base, korm, sahar, sukhoe veshchestvo.*

Ma'lumki, Respublikamiz mustaqilligining boshlang'ich yillarida chorva mollariga bo'lgan e'tibor ma'lum darajada susaygan edi. Natijada mollarning bosh soni kamayib, olinadigan mahsulot miqdori ham talab darajasida bo'lmay qoldi. Ozuqa bazasi nochor holatga tushdi, naslchilik ishlariga ham bo'lgan e'tibor susayib, halqimizning go'sht, sut va tuxum mahsulotlariga bo'lgan talabi yetarli darajada qondirilmadi. Yuqoridagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarga barxam berish borasida respublikamiz prezidenti va hukumatimiz tomonidan chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi.

Sog'iladigan sigirlardan olinadigan sut mahsulotining miqdori va tarkibi ratsionda beriladigan ozuqa turi va tarkibiga bog'liqligi, ko'plab olimlar va amaliyotchilar tomonidan o'tkazilgan tajribalarda o'z isbotini topgan.

Mamlakatimizning turli hududlarida chorva mollarini oziqlantirishda foydalanadigan ozuqa tarkibi, ya'ni unda saqlanadigan to'yimlilik moddalar miqdori bir – biridan farq qiladi. Shuning uchun ratsion to'liqqiyamatliligini ta'minlashda ratsionga kiritilgan har bir turdagi ozuqaning tarkibini bilish maqsadga muvofiq.

Haydarov Q.H., Nahalboyev A. (2010) lar tomonidan olib borilgan izlanishlar, ozuqalarning umumiy to'yimliliigi adabiyot ko'rsatgichlariga nisbatan anchagina farqi borligini ko'rsatdi.

Ratsion to'liqqiyamatliligi birgina energiya beruvchi moddalar bilan baholanmasdan, organik moddalarning hayvon organizmiga ko'rsatadigan ta'siri, ratsiondagi onorganik va biologik aktiv moddalarning ishtirokisiz amalga oshirilmaydi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirishda eng muhimi ularni hazmlanadigan azot bilan ta'minlashdir hayvonlar ozuqa tarkibidagi azotni hazmlaydi bunda o'simlik va hayvonlardan olinadigan ozuqa takibidagi oqsilni, ular ular anorganik moddalardan oqsilsiz azotli moddalardan oqsil sintez qilmaydi. SHuning uchun ham hayvonlarning mahsuldorligi va uning sifati ozuqa tarkibidagi oqsil bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Kovshovchilarda katta qorindagi mikroflora bilan simbiyozga aylanib, o'z tanasining oqsil sintezi uchun oqsilsiz azotdan foydalanadi.

Kovshovchilar tomonidan amidlardan foydalanish ularning hazmlash organlarining tuzilishi bilan bog'liqdir. Kovshovchilar ko'p kamerali oshqozonning oldingi bo'lagida har xil turdagi mikroflora va mikrofauna rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratilgan. Katta qorindagi bakteriyalar amidlar azotidan oqsil sintez qiladi va organizm tomonidan so'riladi.

Katta qorinda ozuqa quruq moddasining yarmi hazmlanishga tayyorlanadi bu jarayon asosan mikroorganizmlar hisobiga bajariladi. Mikroorganizmlar kletchatkani kislota va qandga parchalaydi, bu esa boshqa bakteriyalarning foydalanishga ham yordam beradi va bu jarayonda oqsil sintezlanadi.

Bakteriyalar tomonidan oqsilning sintezlanishiga faqat ozuqa yoki ratsion oqsil yoki xom protein bilan yoki oqsilsiz azotli birikmalar bilan ta'minlanganda amalga oshiriladi.

Katta qorinda mikroorganizmlar tomonidan sintez qilinadigan mikrob oqsillari biologik qiymati jihatidan yuqori ekanligi isbotlandi.

Sanoatda mochevina mayda kristal shakilda chiqariladi. Mochevina tarkibida 44 – 46 % ozuqa saqlaydi. Uning proteinli ekvivalenti 2,60 – 2,62 ga teng.

Mochevina katta yoshdagi qoramolga, yosh qoramolga, qo'yga va 6 oylikdan katta yoshdagi qo'ziga berish mumkin. Mochevinani silos bilan, lavlagi jomi bilan, omuxta yem, don ozuqalar, ko'k ozuqalar bilan aralashtirib berish mumkin.

Kovshovchilar uchun kunlik talab qilinadigan hazmlanuvchi proteinning 25 – 30% (azot bo'yicha) quyidagicha berish mumkin.

Bir kunda qoramollarga beriladigan mochevina miqdori

Qoramol turi va yoshi	Qoramol uchun kunlik me'yor, gr
Sigirlarga	100 – 150
Bo'rdoqiga boqilayotganlarga	70 – 80
12 oylikdan katta bo'lgan qoramollarga	40 – 60
6 oylikdan 12 oylikgacha bo'lganlarga	30 – 40

Mochevina hayvonlarga qaysi turdagi oзуqalar bilan berilishidan qat'iy nazar juda yaxshi aralashtirilishi zarur. Hayvon organizmida mochevina taksiko'z bo'lmasligi uchun kunlik qo'shiladigan mochevina miqdorining 0,1- 0,2 gr miqdorida berib boriladi va katta qorindagi mikroorganizmlar tomonidan mochevina tarkibidagi azotga moslashishi uchun adaptatsiya muddati 10 – 15 kundan kam bo'lmasligi kerak.

Hayvonlarning amiyak bilan zaharlanishini oldini olish uchun, mochevinani sof holda yoki suv bilan aralashtirib berish qat'iy man etiladi.

Quyidagi 2-3 jadvallarda tajribadagi sigirlar uchun tuzilgan ratsion tahlili bayon etilgan. Proteinning etishmagan qismini azot hisobiga to'ldirishda karbamidning azotli ekvivalentidan foydalanildi. Azotning ekvivalenti 2.60-2,62 ga teng. Tajriba guruhida belgilangan me'yorga nisbatan 159 g. protein etishmaydi. Ushbu miqdordagi proteinni to'ldirish uchun 61,5 gramm karbamid talab etiladi.

1- jadval**Tirik vazni 400 kg bo'lgan kunlik beradigan suti 12 kg ni tashkil etadigan sog'in sigirning kech kuz va qish uchun ratsioni**

№	Ozuqa turi	Ozuqa miqori, kg	Ozuqa birligi	Hazmlanadigan protein g	Quruq modda kg	Xom kletchatka g	Qand mg	Karatin mg	Ca, g	P, g	NaCl, g
	Me'yor		10,6	1160	13,2	3700	800	410	65	45	73
1	Beda pichani	4	1,76	404	3320	1012	80	196	68	8,8	
2	Bo'g'doy somoni	3	0,6	15	2538	912	9	12	8,4	2,4	
3	Makka	20	4,0	280	5600	1500	120	800	28	8	

	silosi										
4	Xashaki lavlagi	8	0,96	72	960	72	320	0,8	3,2	4,1 4	
5	Bug'do y kepagi	1,5	1,13	145	1275	132	70,5	3,9	3,0	4	
6	Paxta shiroti	0,5	0,45	164	450	62	32,5	0,5	2,0	5,0 5	
7	Arpa doni	1,5	1,73	127	1275	73,5	3	0,45	3,0	5,8 5	
8	Osh tuzi	0.073									73
Jami		38,5	10,6 3	1207	1541 8	3763,5	635	1013	112	48, 5	73

3-jadval

Tirik vazni 400 kg bo'lgan kunlik beradigan suti 12 kg ni tashkil etadigan sog'in sigirning kech kuz va qish uchun ratsioni

No	Ozuq a turi	Ozuq a miqor i, kg	Ozuq a birlig i	Hazmla na digan protein, g	Quruq q modd a kg	Xom kletchat ka, g	Qan d, mg	Karat in mg	Ca, g	P,g	NaCl, g
Me'yor			10,6	1160	13,2	3700	800	410	65	45	73
1	Beda pichani	2	0,88	202	1660	506	40	98	34	4,4	
2	Bo'g'doy somon	4	0,8	20	3384	1456	12	16	11, 2	3,2	
3	Makka silosi	25	5,0	350	6250	1875	150	500	35	10	
4	Xashaki lavlagi	10	1,20	90	1200	90	400	4,0	4,0	5,0	
5	Bug'doy kepagi	1,0	0,75	95	850	88	47	2,0	9,6	2,6	
6	Paxta shiroti	0,5	0,45	164	450	62	32,5	0,5	2,0	5,0 5	
7	Arpa doni	1,5	1,73	127	1275	73,5	3	0,45	3,0	5,8 5	

8	Osh tuzi	0,073									73
9	DAF, g	50								11,5	
10	Karbamid, g	61,15		159							
	Jami	38,5	10,81	1207	14,61	4150	684	621	98	47,5	73

Proteinning etishmagan qismini azot hisobiga to'ldirishda karbamidning azotli ekvivalentidan foydalanildi. Azotning ekvivalenti 2.60-2,62 ga teng. Tajriba guruhida belgilangan me'yorga nisbatan 159 g. protein etishmaydi. Ushbu miqdordagi proteinni to'ldirish uchun 61,5 gramm karbamid talab etiladi.

Tajribaning iqtisodiy samaradorligi shuni ko'rsatadiki, har ikkala guruhdan ham sog'ib olingan sut miqdori bir xil. Tajriba guruhidagi sigirlardan olingan sutning tannarxi nazorat guruhiga nisbatan 1681 so'mga arzon bo'ldi. Buning asosiy sababi narxi qimmat bo'lgan ozuqa miqdori kamaytirilib, narxi arzon bo'lgan ozuqalar miqdori ko'paytirildi.

XULOSA

O'rganilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tajribalar natijalariga asoslanib qo'yidagilarni xulosa qilish mumkin:

1 Hayvon organizmida kechadigan jarayonlarning me'yorda bo'lishini ta'minlashda, mahsulit ishlab chiqarishda, ratsionda protein etishmaganda belgilangan me'yorda sun'iy azotli brikmalardan foydalanish, jumladan mochevanadan ham foydalanish mumkin.

2. O'tkazilgan tajribasi shuni ko'rsatdiki, protein talabi ratsiondagi ozuqalar bilan qondirilgan guruhdan olingan sut miqdori bilan, protein etishmagan ratsionga mochevina qo'shish bilan oziqlantirilgan sigirlardan olingan sut miqdori bir xil 309 kg ni tashkil etgan.

3. Tajriba guruhidagi ya'ni mochevina qabul qi sigirlardan olingan sut miqdori u4chun sarflangan ozuqa tannarxi bir muncha arzon bo'lganligi sababli olingan daromad 1681 so'mga ko'p bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.O. Kazakova, O.H. Temirov, A.A. Turobov, O.B. Tuxtayev. VARIETIES OF BEEF AND CULINARY CHARACTERISTICS International journal of advanced research in education, technology and management 2023 21-28

2. S.O. Kazakova, NP Roziboev (2022) Characteristics milk production of cows with different body composition World Bulletin of Management and Law. 35-38.

3. O.Kazakova, S.D. Bahodirov. (2023) Mamlakatimizda go'sht kanservalari ishlab chiqarishning hozirgi holati va rivojlanishi. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. 136-141

4. Qo'ziyev, I. Q., Fayzullayev, O. B., To'xtayev, O. B., & Boymatov, O. S. (2022). Ozuqa bazasini mustahkamlashda senaj tayyorlashning ahamiyati. *agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 844-8
5. Белавский Ю.И., Сазонова Т.Н. Кормасмеси и кормовые добавки в малочном скотоводстве. М.1981
6. Богданов Г.А. Кормление сельскохозяйственных животных Украина 1990
7. Петухова э.А. ва бошқалар Практикум по кормлению сельскохозяйственных животных М.1991
8. Баканов В.Н., Менкин В.К. Кормление сельскохозяйственных животных М.2009
9. Далакян В., Рахмонова Ш. Корма Узбекистана. Ташкент 1998
10. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). O 'RTA TA'LIM O 'QUV YURTLARIDA VA MUDOFAA-SPORT SOG 'LOMLASHTIRISH OROMGOHLARIDA OMMAVIY-MUDOFAA ISHLARINI TASHKILLASH VA O 'TKAZISH USLUBIYOTI. *World of Science*, 6(5), 631-636..
11. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI VA OMMAVIY-MUDOFAA ISHLARINI TASHKILLASH VA O 'TKAZISHDA HARBIY TA'LIM RAHBARINING VAZIFALARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 1202-1206.
12. Ibragimjanovich, T. I., Komiljon o'g'li, O. D., & Raxmatjon o'g'li, X. D. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY, MA'NAVIY VA MADANIY MEROSIMIZNING O 'RNI VA ROLI. *Scientific Impulse*, 1(9), 1425-1427.
13. Ibragimjanovich, T. I., Komiljon o'g'li, O. D., & Raxmatjon o'g'li, X. D. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY, MA'NAVIY VA MADANIY MEROSIMIZNING O 'RNI VA ROLI. *Scientific Impulse*, 1(9), 1425-1427.
14. Ibragimjanovich, T. I., & Kurbanbay o'g'li, X. J. (2023). YOSHLARGA HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI SINGDIRISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 1209-1213.